

TURKISTONDA YANGI TA'LIM TIZIMINING YUZAGA KELISH OMILLARI (XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARI)

A.O.Xasanov – kichik ilmiy xodim

O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Tarix instituti

Tayanch soʻzlar: Turkiston, jadidchilik, milliy ta'lim tizimi, mustamlakachilik, musulmon davriy matbuoti.

Ключевые слова: Туркестан, джадидизм, национальная система образования, колониализм, мусульманская периодика.

Key words: Turkestan, jadidism, national educational system, colonialism, muslim press.

XIX asr ikkinchi yarmida Turkiston mintaqasida xalqning milliy ruhiyatini uyg'otish, ijtimoiy-madaniy jihatdan taraqqiy ettirish va shu asosda yurtni ozodlikka erishtirish maqsadlarini ko'zlagan ma'rifatparvarlik harakati yuzaga keldi. Jadidchilik harakatining tamal toshi bo'lgan bu harakat, avvalo, milliy ta'lim tizimini isloh qilib yangi davr talablariga moslashtirishni o'z oldiga vazifa qilib qo'ydi. Millat oydinlari ilmsizlik, jaholat, loqaydlik barcha kulfatlarning asosiy sababi ekanligini, unga qarshi kurashish zaruriyatini anglab yetdilar. Turkistondagi mustabid hokimiyatning maorif siyosatini asl maqsad muddasini tushundilar. Unga tandiq ko'zi bilan qarab, milliy ruhdagi yangi ta'lim tizimini tashkil etishga qaror qildilar. Xalq ongini tubdan isloh qilish yo'li bilan mamlakatni qaramlikdan va qoloqlikdan chiqarishni ko'zladildilar. XIX asr oxirlaridan paydo bo'lgan milliy ruhdagi yangi ma'rifatchilik harakati ana shunday ehtiyojlar natijasida yuzaga keldi.

XIX asr ikkinchi yarmida Turkiston bo'ylab yangi ma'rifatparvarlik harakatini paydo bo'lishiga bir qator omillar yetilgan edi. Avvalo, Turkiston o'lkasining mustamlakaga aylantirilishi bosh omil bo'ldi. Rossiya imperiyasi Turkistonda barcha sohalar qatori milliy madaniyat va ta'lim sohasida ham o'z manfaatlarini yuzasidan siyosat yuritdi. Imperiya manfaatlarini ko'zlab "yovvoyi xalqlarni madaniylashtirish" shiori bilan kiritilgan "madaniyat" tub yerli aholiga hech qanday manfaat keltirmadi. Xususan, 1913-1914-yillarda Turkiston o'lkasidagi shaharlarga sayohati davomida Namangandan Marg'ilonga yo'l olgan tatar taraqqiyparvari No'shiravon Yovishev o'z esdaliklarida poyezd bekatida yuz bergan bir voqeani keltirib o'tadi. Quyida keltirilgan ushbu voqea ham aslida ruslar kiritgan "madaniyat" kim uchun xizmat qilganligini yanada ochiq-oydin ko'rsatib turadi: *"Poyezdlar alishingan sababli Xo'qand stansasida biroz to'xtab tururg'a to'g'ri keldi. Bizning yo'limizg'a ketmak uchun 3 dona ko'k vagon 9 dona qizil vagon tayyor bo'lmish edi. Bilet olib ko'k vagonga kirdim. Bir odam manim munda kirganimni ko'rub: "hoy bul sart vagoni emas, bu vagon ruslarga maxsusdir. Kondukturlar ko'rsa o'zingni haydab chiqarurlar" dedi. Vagonlarning ko'ki qizili 4 klaslik o'lub bilet baholari ham bir o'ldig'indan kondukturlarning chiqarmoqg'a haqlari yo'qligini bilur edim. Va ammo onlar ila talashub tortqulashub turmoqg'a xushim kelmas edi. Binoa oliya tezlik ila salla choponimni yechub qo'yub, boshimga telpagimni kiyib oldim. Undan so'ng kondukturlar kelub kirdi. Darvoqe, boya menga aytgan kishining so'zi to'g'ri keldi: salla choponliklarni urub urub qizil vagong'a haydadilar"*[3].

Binobarin, rus mustamlakachilari joriy qilgan yangi ta'lim tizimi – rus-tuzem maktablari ham xalq ongini yangilay olmasdi. Chunki, ular faqat mustamlakachilarga itoatkor kishilarni tarbiyalash maqsad qilingan edi. Rossiya o'lkada hukmronligini o'rnatgan dastlabki davrdanoq milliy ta'lim tizimi masalasi bir necha bora yuqori doiralarda muhokama qilindi. Bu muhokamalarda yangragan ko'plab jumalalarda imperiya tarkibidagi yot xalqlarga ta'lim berishning asl maqsad-muddaosi nima ekanligini aniq ko'zga tashlandi. Mustamlaka xalqlarni ruslashtirish siyosatining ashaddiy tarafdori bo'lgan imperiya maorif vaziri D.A. Tolstov fikricha, *"Vatanimiz (Rossiya imperiyasi – A.X) chegaralarida yashayotgan barcha yot xalqlarga ta'lim berishning tub asosida shubhasiz ularni ruslar bilan yaqinlashtirish va ruslashtirish yotishi kerak"* [9:133] bo'lgan. XIX asr 70-

yillarida uning tashabbusi bilan ishlab chiqilgan "Rossiya yot aholisi ta'limining chora-tadbirlari to'g'risida" gi hujjat bosib olingan xalqlarni, xususan, Turkiston aholisini ham ruslashtirish uchun yo'riqnoma vazifasini bajardi [11:80].

Turkiston general-gubernatorligi tuzilgach, bosqinchi ma'muriyat oldida o'lkada yangi ta'lim tizimini ishlab chiqish, buning uchun o'lkani yaxshi biladigan, xususan, imperiya tarkibidagi yot millatlar ta'limi haqida tushunchaga ega bo'lgan kishilarni o'lkada boshqaruv ishiga safarbar qilish, ularni zimmasiga o'lkada aholisini har tomonlama o'rganib, yangi maorif tizimini joriy qilish va qonuniy asosda mustahkamlash muammolari yuzaga keldi. Bu muammolarni hal qilish maqsadida Turkistonning birinchi general-gubernatori K.P.fon Kaufman ko'rsatmasiga binoan general-gubernatorlik devonxonasining alohida ishlar bo'limi boshlig'i Brodovskiy boshchiligidagi maxsus komissiya tuzildi [7:5]. Kommissiya o'lkadagi yangi ta'lim tizimini qoidalarini ishlab chiqishda imperiya manfaatlarini aks ettirish yo'nalishi, ya'ni yuqorida ko'rsatilgan hujjatga muvofiq aholini ruslashtirish masalasiga ustuvor darajada ahamiyat qaratdi. 1871-yil ushbu komissiya ishlab chiqqan o'lkada ta'limi to'g'risidagi ilk qoidalar tasdiqlash uchun Harbiy vazirlikka yuborildi [7:6]. Unga ko'ra, o'lkadagi eski usuldagi mavjud maktablarni "inkor etish" orqali ularni asta-sekin inqirozga yuz tuttirish, o'lkada yangi ochiladigan davlat maktablarida rus va yerlik bolalarni aralash holda o'qitish yo'li bilan Turkiston xalqini imperiyaga xayrixoh ruhdan tarbiyalab sodiq xizmatkorga aylantirish maqsad qilindi. Xuddi, shu komissiya ishlab chiqqan qoidalar kichik o'zgarishlar bilan 1917-yilgacha Turkistondagi imperiya ta'lim siyosatining asosiy o'zagi bo'lib xizmat qildi.

Ayni paytda, mustamlakachilarning vaqf mulklarini nazoratiga olish siyosati ham milliy ta'lim tizimiga salbiy ta'sir qildi. Eski tartibdagi maktablarni turg'unlik sari yuz tutub, yanada chuqur tanazzulga uchrashiga bosh sabab ularni vaqf mulklarisiz qolishi bo'ldi [2]. Bu holat ham millat oydinlarini milliy ta'lim tizimi haqidagi qarashlariga o'z ta'sirini o'tkazdi. Buni o'sha davrda yashagan rus shovinistlaridan P. Ivanskiiy shunday izohlagan: *"Zamonaga muvofiq emasligi va yordamchi kuchlari yo'qligi sababli eski usuldagi maktablar o'z-o'zidan yo'qolib ketadi, deb o'yladilar. Boshidan tuzemeslar orasida, nafaqat ta'lim, hatto, rus tilini yaxshiroq tarqatishga ham tirishmadilar. Va ruslar uchun ochilgan maktablardan sonlari va ahamiyatlari juda oz bo'lgan qirg'izlarga foydalana oldi-aham. ...musulmonlarning onglilari endi o'zlar uchun yangi usul maktablar ocha boshladilar"* [5:520-522].

Boshqa tomondan, Rossiya bosqinidan keyin o'lkaga kirib kelgan Yevropa bilan bog'liq rivojlangan ma'rifatparvarlik harakati ham ilg'or ziyolilarga ta'sir qilmadan qolmasdi. Millat ziyolilari mamlakat qoloqligi sababini mustamlakachilik zulmi, hukmron sinflarning xalqning savodsizligi va ma'rifatsizligidan manfaatdorligida ko'rdilar. Shu bois yetilgan muammolarni faqat ma'rifatchilik va savodxonlikka erishish orqali hal qilish mumkin deb hisobladilar [10:7].

G'arb va Sharqdagi turli davlatlarga qilingan sayohatlar va islom dunyosini uyg'otishga yo'g'rilgan matbuot bilan tanishuv Turkiston milliy ziyolilarning dunyoqarashini tubdan o'zgartirib yubordi. Ular dunyoda ro'y berayotgan o'zgarishlardan boxabar bo'ldilar. O'z davlatlaridagi qoloq siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy tartiblarni o'zgartirish lozimligini tushunib yetdilar. Jadidchilik ana

shunday fikriy o'zgarish, ongni yangi g'oyalar bilan boyishi negizida vujudga keldi. Jadidchilik fenomenini ham sharq, ham g'arb madaniyatini bilish bilan tavsiflanadigan o'ta yuqori aqliy salohiyat tashkil etdi [10:11]. Ma'naviy-ma'rifiy jihatdan yuksak aql sohibi bo'lgan jadidlar ma'rifatparlik orqali har qanday insonni kamolotga yetkazish, inson ongini yuksaltirish mumkinligiga ishonidilar va o'z harakatlarini ham, eng avvalo, insonlarga ma'rifat tarqatishga yo'naltirdilar.

Ma'rifatparlik harakatini keng yoyilishida, shubhasiz, jadid matbuotining hissasi beqiyos bo'ldi. Rossiya imperiyasi tarkibidagi musulmon xalqlarini uyg'otishda 1905-yilga qadar "Tarjimon" gazetasi asosiy vositachi vazifasini bajargan bo'lsa, undan keyin 30 dan ortiq musulmon gazeta va jurnallari nashri yo'lga qo'yildi [1]. Gazetalarning eng ko'zga tashlanadigan sahifalarida maktab muammolari yoritildi. Ularda turli uslubdagi rivojlangan davlatlar ta'lim tizimi tahlil qilindi. Xususan, "Sho'ro" jurnalining 1914-yilgi sonlaridan birida Amerika, Angliya va Germaniyadagi ta'lim tizimi haqida foydali ma'lumotlar taqdim etilgan edi [4:342-344]. Undan ma'lum bo'lishicha, Amerikada 4 bosqichda davom etadigan 12 yillik maktab ta'limida o'quvchilarga shaxsiy tashabbuskorlik ruhi singdirilgan. Har bir bola o'zi istagan maktabda o'qish huquqiga ega bo'lgan. Maktablarda o'g'il va qiz bolalar aralash o'qitilib, dars davomida hech qanday jazo qo'llanilmagan. Ayni paytda, uyda o'qitishga ruxsat berilmagan. Angliyada xususiy maktab ta'limi keng rivojlangan. Shuning uchun oddiy xalq bolalarining ko'pchiligi maktablarda o'qish imkoniyatiga ega bo'la olmagan. Lekin, 1911-1912-yillardagi islohot natijasida davlat tomonidan oddiy xalq bolalari uchun boshlang'ich va o'rta ta'lim olish imkoniyatlari kengaytirilgan. Natijada, boshlang'ich maktablardan o'rta maktablarga kirib o'quvchi oddiy xalq bolalari soni 91 mingga yetgan. Germaniya maktablarida esa tartib, itoat, milliy g'urur,

qo'rqmaslik tarbiyaning negizi sanalgan. Boshlang'ich ta'lim barchaga majburiy bo'lgan. O'sha davrda Rossiyada xizmatga olinadigan har 100 ming kishidan 60 mingga savodsiz bo'lsa, bu ko'rsatkich Germaniyada 4 taga to'g'ri kelgan. Bu kabi ma'lumotlar bilan tanishish, tabiiyki, millatning ilg'or ziyolilarining ongini o'zgartirmasdan qolishi mumkin emasdi.

Rossiya imperiyasining bosqinidan keyin o'lkaga kirib kelgan yangi shakldagi bozor munosabatlari yangi malaka va ko'nikmalarga ega bo'lgan kishilarga ehtiyojni yuzaga keltirdi. Rossiya bilan o'zining savdo muomilasida savodlik xodimlarga muhtoj bo'lgan va shuning bilan birga o'z bolasini rus missionerlari tomonidan ochilgan rus-tuzem maktablariga berishni xohlamagan milliy burjuaziya tashabbusi bilan ta'lim tizimida o'zgarishlar yuz berishi hayotiy zaruriyatga aylanib qoldi [6]. Farg'onalik mashhur jadid taraqqiyparvari Is'hoqxon to'ra Ibrat ta'biri bilan aytganda "madaniyat uchun har qaysi vaqtdagi o'z ilmini, ya'ni zamona ilmini qaysi rivojda bo'lsa, oni bilmak" [8:8] zaruriyati anglab yetildi.

Demak, yuqoridagilardan xulosa qilinsa:

- Turkiston mintaqasida aholini ruslashtirishga qaratilgan mustamlakachilik siyosati;
- ilg'or ziyolilarning dunyoning turli hududlariga qilgan sayohatlari davomida G'arb va Sharq olami yangiliklari bilan tanishuvi;
- Sharqda boshlangan uyg'onish harakati;
- taraqqiyparvarlik ruhida jadid matbuotida ma'rifatparvarlik masalalarining keng tahlil qilinishi;
- kapitalistik bozor munosabatlari sharoitida ish olib bora oladigan yangi bilimga ega mutaxassislariga bo'lgan ehtiyoj o'lkada yangi ma'rifatchilik harakatining yuzaga kelishi va milliy ta'lim tizimi isloh qilinishida muhim omillar bo'lib xizmat qildi.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Milliy arxivi. I-461 fond, 1-ro'yxat, 961-ish, 14-varaq.
2. Otabekuf. Usuli jadid maktablari haqida. / "Turkiston viloyati" 1900.13-may.
3. Yovishev N. Sayohat parchalari. / "Sadoyi Turkiston". 1914. 12-may.
4. Amerikada maktab, Angliya va Germaniya maktablari. // "Sho'ro". 1914. 1-iyun.
5. Turkistonda maktab masalasi. // "Sho'ro" 1917. 1-sentabr.
6. Feodorov. 1905 yil va yerlik xalq. / "Qizil O'zbekiston". 1925. 18-dekabr.
7. Граменицкий С.М. Очерк развития народного образования в Туркестанском крае. -Ташкент: 1896. -С.88.
8. Исхоқхон Тўра Ибрат. Тарихи Фарғона. -Тошкент: 2005, 199- 6.
9. Исхаков Ф. Национальная политика царизма в Туркестане (1867-1917). -Ташкент: 1997. -С.197.
10. Алимова Д.А. Жадидчилик феномени. -Тошкент: 2022. 272-6.
11. Ўзбекистонда таълимнинг ривожланиш тарихи ва тарихшунослиги очерклар. Масъул муҳаррир Д.А. Алимова. -Тошкент: 2015. 243-б.

REZYUME. Ushbu maqolada Turkiston mustamlakaga aylantirilgach milliy ta'lim tizimida amalga oshirilgan siyosati ochib berilgan. Jadidchilik harakatining ta'limni isloh qilishga birinchi darajada e'tibor qaratish sabablari ko'rsatib o'tilgan. Milliy ta'lim tizimi yuz bergan o'zgarishlar tahlil qilinib, dalillarga asoslanib umumiy xulosalar chiqarilgan.

РЕЗЮМЕ. В данной статье раскрывается сущность колониальной политики туркестанской образовательной системы. Показаны причины, по которым джаиды обращают внимание на реформу образования. Анализируются изменения в национальной системе образования и заключаются на основе исторических фактов.

SUMMARY. In this article explanines essence the colonial politics of Turkestan educational system. It is shown reasons why jadids pay attention to reform education. Changes in the national education system are analyzed and general conclusions are drawn based on the historical facts.

ЖАНУБИЙ ОРОЛ БЎЙИ ВА ХОРАЗМНИНГ КАДИМГИ ДАВРДАГИ ҚУРОЛСОЗЛИК ХУНАРМАНДЧИЛИГИ

Б.Қ.Турганов – тарих фанлари номзоди, доцент

Ажиниёз номидаги Нукус давлат педагогика институтини

Таянч сўзлар: Жанубий Оролбўйи, Хоразм, антик давр муаллифлари, сак ва массагет кавмлари, ҳарбий ишлари, қурол - аслаҳалари, камон, ханжар, совут ва ҳарбий болталар, Эрон ахамониёрли армияси, юнон-форс урушлари.

Ключевые слова: Южное Приаралье, Хорезм, авторы античного периода, племена саков и массагетов, военное дело, вооружение, луки, кинжалы, доспехи и боевые топоры, Ахеменидская армия, греко-персидские войны.

Key words: South Aral Sea, khorezm, ancient authors, tribes of Saks and Massagets, military affairs, weapons, bows, daggers, armor and battle axes, Achaemenid army, Greco-Persian wars.

Жанубий Орол бўйи ва Хоразм халқларининг қуролсозлик хунармандчилиги тарихи қадимий илдизларга эга бўлиб, минтақа халқларининг серкирра ва бой ўтмиш маданиятининг муҳим таркибий қисмини

ташқил қилади. Ҳали давлатчилик пайдо бўлмаган бронза даврларидаёқ, Жанубий Оролбўйи ҳудудида яшаган турли қабилалар ташқи душманлардан ўзларини ҳимоялаш мақсадида бирлашмаларга уюшганлар,